



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

11/2024



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz



11/2024

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal

2024, № 11, noyabr

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Moldova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

“NAVOIY GULSHANI”		
Amonova Z.Q.	Ishq aro o‘lmakdin o‘zga chora yo‘q...	88
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
Фазылова А.А.	Защита культурных ценностей во время вооружённых конфликтов	91
Rajabov A.Sh.	Mirbobo Naqshbandiyning “Mir’otus solikiyn” asari va uning irfoniy-falsafiy mohiyati	96
Saydullayev U.U.	Ijtimoiy ongda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni va roli	100
Sadibaqosev H.Sh.	Xitoyning Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasidagi manfaatlari	105
Нурмуродов Д.	Халқаро муносабатлар ва янги жаҳон тартиботи: эволюцияси ва амалиёти	112
Соипов Б.И.	Марказий Осиёда диний бағрикенглик масалалари	117
Мунавварова М.И.	Жадидларнинг миллий озодлик мафкураси	122
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Akramov D.F.	Sovet boshqaruvi davrida o‘qituvchi kadrlar tayyorlashdagi muammolar	127
Ashirov V.I.	Sanoat shaharlari aholisining sog‘liqni saqlash va salomatligidagi muammolar	132
Murodov H.S.	Viza – turizm siyosati uchun keng qulaylik omili	138
Sultonov E.M.	Bronza va ilk temir davri chorvachilik xo‘jaligi xususida	142
To‘rayev A.I.	Buxoro vohasi aholisining dehqonchilik an‘analari va ular bilan bog‘liq marosimlar	146
Xo‘jaxonov I.M.	Turkiston jadidlarining milliy adabiy til haqidagi qarashlari	151
Yarkulov A.A.	Tuproqqal’a arxeologiya yodgorligini konservatsiyalash va muzeylashtirish loyihasini ishlab chiqilishi xususida	156
Зарипов С.Дж.	Трудовые ресурсы Узбекистана в 1970 и 1980 годах XX века	160



Navoiy gulshani

ISHQ ARO O'LMAKDIN O'ZGA CHORA YO'Q...

Amonova Zilola Qodirovna,

Buxoro davlat universiteti,

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori,

filologiya fanlari doktori (DSc)

Alisher Navoiy ijodi jahon tamaddunida o'zining munosib o'riniga ega yuksak ma'naviy xazina sanaladi. Uning o'lmas g'oyalari asrlar davomida insoniyatning ma'naviy yetukligiga hissa qo'shib kelmoqda. Shoir asarlari ulug'ligi jihatdan cheksiz ummondur. Jumladan, uning lirikasi mavzu ko'lamining kengligi, shakl va mazmun mutanosibligi jihatdan ajralib turadi. Zero, "Navoiy lirikasining tub mohiyati – falsafiy, ijtimoiy va etnik qarashlarning yuksak poetik shakldagi ifodasi bo'lganligi bilan xarakterlanadi" [3]. Bu borada Abdurahmon Jomiyning shoir ijodiga oid mulohazalariga e'tibor qaratish o'rinli hisoblanadi. Jomiy "Bahoriston" asarida hazrat Navoiyning turkiy va forsiyda birday qalam tebratgan ulug' ijodkor ekanligiga urg'u berar ekan, turkiy tilda mayli baland ekanligini ham qayd etib o'tadi. Shu nuqtayi nazardan aytish lozimki, shoirning irod olamidn istagan mavzuga daxldor xulosalarni olish mumkin. Chunki Alisher Navoiy lirik asarlarida ham olam va odamga oid turfa mavzularni eng yuksak darajada yoritgan. Fikrimiz isboti sifatida "Badoyiul bidoya" devonining 230-g'azalini tahlilga tortsak:

Ne ajab, har yon meni majnun boshida yoralar,
Baski yog'di ustiga atfol elidin xoralar.
Orazing atrofida guldur ko'rungan, ey pari,
Yo qamar davrida saf tortibdurur sayyoralar?
Har qyun go'yoki bir sargashta oshiq gardidur,
Baski, tufrog' o'ldi ishqing dashtida ovvoralar.
Anglakim, ahhobni kulbamda mehmon etmisham,
Itlari og'zida gar ko'rsang bag'irdin poralar.
Anda Majnun, men buyon Layli, sen etgach ijtimoi':
Bir taraf devonalar, bir yon pari ruxsoralar.
Xonaqah vaqfi suyin ichmaslar, ey shayx, anlag'il,
Gar xumor o'lsa fano dayridag'i mayxoralar.
Ey Navoiy, ishq aro o'lmakdin o'zga chora yo'q,
Bas, g'alat bo'lg'ay demak ushshoqni bechoralar.

Mazkur g'azal "Xazoyinul maoniy" tarkibiga ham kiritilgan. Ya'ni "Badoyi ul vasat" devonining 177-g'azali sifatida keltirilganligini ko'rish mumkin. G'azalda ishq va oshqlik masalalari yuqori pafosda kuylangan. Birinchi baytda shoir she'r lirik qahramonining jununlik holati va ayni holat tufayli atfol (bolalar) elidan oshiq boshiga xoralar (qattiq tosh) yog'ganligini qayd etar ekan, oshqlik tufayli boshining o'zida ham yoralar (jarohat) mavjudligiga urg'u beradi.

Malumki, g'azalning birinchi bayti qolgan baytlar uchun kengaytirilgan reja vazifasini o'taydi. Ya'ni ijodkor dastlabki baytda keltirilgan fikrlar mohiyatini keyingi misralarda batafsil yoritadi. Ana shu jihatdan e'tibor qaratganda, mazkur g'azalning ikkinchi baytida shoir oshqlik holatining asosini oydinlashtirib beradi. Ya'ni muallifning lirik qahramoni ishqqa muftalo bo'lib, u oshqlikning yuqori bosqichi sanalmish majnunlik holiga yetgan. Navoiy ikkinchi baytda oshiqni jununvash etgan ma'shuqa ekanligini shunchaki qayd etmay, balki uning go'zal husn egasi ekanligini chiroyli tamsil asosida yoritib beradi:

Orazing atrofida guldur ko'rungan, ey pari,
Yo qamar davrida saf tortibdurur sayyoralar?

Baytda ma'shuqa orazidagi ko'z, qosh, zulf, xol kabi go'zallik uzvlari gul sifatida e'tirof etilgan. Sababi gul eng go'zal, ko'zni quvontiradigan o'simlik, shu jihatdan, ijodkor istiora asosida ushbu yuz a'zolarini "gul" ga qiyos etgan. Shoirning nido san'ati vositasida ma'shuqaga "ey pari", deya murojaati ham

keltirilganki, undalmaning qo'llanilishi ta'kid va murojaat ruhini kuchaytirishga xizmat qilgan. Baytning ikkinchi misrasida shoir birinchi misradagi tashbehlarni davom ettirib, yanada go'zal o'xshatishlarni qo'llaydi. Ya'ni ma'shuqa orazi qamar (oy)ga, undagi go'zallik uzvlari qamar atrofidagi sayyoralariga qiyoslanib, ayni o'xshatishni tajohulu orif orqali ifodalash bilan badiiylikning yanada ta'sirchan chiqishiga erishgan. Shoir ikkinchi baytda ma'shuqaning go'zal husnini ta'rif etgan bo'lsa, uchinchi baytda yana oshiq holati ifodasiga to'xtaladi:

Har qyun go'yoki bir sargashta oshiq gardidur,
Baski, tufrog' o'ldi ishqing dashtida ovvoralar.

Ijodkor nazdida esgan har qyun bir sargashta (boshi aylangan, hayron, sarson) oshiqning gardi(chang, g'ubor) dir. Navoiy sifatlash orqali oshiqning ishq tufayli yuzaga kelgan holati (sargashta) ni o'rinli qayd etadi. Chunki, oshiqlar aynan ishq tufayli ushbu holatga tushadilar va ishq dashtida ovvora kezadilar. Shoir birinchi misrada har quyunni oshiqning gardi sifatida e'tirof etsa, ikkinchi misrada ayni mulohazalarini izchil davom ettirib, oshiqlarni ishqning dashtida tufrog' bo'lgan ovvoralar sifatida qayd etadi. Bunda istioralarning izchil qo'llanilishi fikr ta'sirchanligini ta'minlagan. Navbatdagi baytda sevimli yorini o'z kulbasida mehmon bo'lishini istagan oshiq holati tasviriga o'rin ajratilgan:

Anglakim, ahhobni kulbamda mehmon etmisham,
Itlari og'zida gar ko'rsang bag'irdin poralar.

Ya'ni oshiq agar ahhob (birligi habib, sevimli, yor, do'st) i kulbasida mehmon bo'lsa, uning itiga o'z bag'rini pora (parcha, bo'lak) qilib berishga tayyor. Baytdagi mubolag'aviy tasvir an'anaviy bo'lsa-da, mazkur misrada o'rinli qo'llanilib, shoir mahoratini ko'rsatib turadi.

Keyingi baytda oshiq Majnun, ma'shuqa Layli sifatida e'tirof etiladi:

Anda Majnun, men buyon Layli, sen etgach ijtimoi':
Bir taraf devonalar, bir yon pari ruxsoralar.

Mazkur g'azalda ishq va oshiqlik tasviriga kuchli e'tibor qaratilgan. Zero, g'azal matla'sidayoq oshiq majnun sifatlashi orqali tilga olingan edi. Ushbu ifoda mantiqan davom ettirilganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, ikkinchi misrada ham "Bir taraf devonalar, bir yon pari ruxsoralar", deyish orqali oshiq (devona) va ma'shuqa (pari ruxsora) nazarda tutilgan. Ushbu baytdagi talmeh, takrir, musajja' san'atlarining birga qo'llanilishi ijodkor badiiy mahoratiga dalildir.

Navbatdagi bayt begona bayt bo'lib, bunda shoir luqmayi halol, kishi moliga ko'z tikmaslik bilan bog'liq mulozalarning badiiy ifodasiga e'tibor qaratgan:

Xonaqah vaqfi suyin ichmaslar, ey shayx, anlag'il,
Gar xumor o'lsa fano dayridag'i mayxoralar.

Alisher Navoiy "Xonaqah vaqfi suyin ichmaslar" birikmasi orqali xonaqoh (shayxlar, darveshlar zikr qiladigan katta joy, masjid) vaqf (masjid, madrasa ta'minoti uchun belgilab qo'yilgan mol-mulk) ini o'zlashtirish mumkin emas, chunki bu xonaqoh shayxi uchun emas, balki xonaqohning ta'minoti uchun ajratilgan, deydi. Shoir fikrini asosli ifodalash maqsadida go'yo fano dayridagi (so'fiylikda o'zlikdan ketganlar) mayxoralar (mayxo'r, may ichuvchi, ichkilikka odatlangan)ga may ichish qanday xumor qilsa, xonaqoh shayxlariga ham "vaqf suyin ichish" shunday xumor qiladi, ammo shunday bo'lsa ham "Xonaqah vaqfi suyin ichmaslar, ey shayx, anlag'il", deya ta'kidlaydi. Navoiy ushbu bayt orqali har bir insonni, hatto shayxlarni ham hushyorlikka chaqiradi. Chunki, islom va tasavvufda o'z mehnatidan kun ko'rish, luqmayi halol topish bosh mezon sanalgan. Shoir ishq va oshiqlik haqidagi badiiy mulohazalarini yakunlar ekan, g'azal maqtasida juda ajoyib, chiroyli xulosa qiladi:

Ey Navoiy, ishq aro o'lmakdin o'zga chora yo'q,
Bas, g'alat bo'lg'ay demak ushshoqni bechoralar.

Navoiy nazdida ishq uchun "o'lmakdin o'zga chora yo'q", ya'ni ishq egasi bo'lmoq uchun, oshiqlik uchun "o'lmoq" – nafsni o'ldirmoq kerak. Nafsni o'ldirmoq – maqsad sari qo'yilgan eng asosiy qadam hisoblanadi. Ayni masala barcha tasavvuf tariqatlarida muhim jihatlardan hisoblangan. Alisher Navoiy shunga urg'u berar ekan, "ushshoq" (oshiqlar)larni bechoralar deyish g'alat (yanglish, xato)dir, deydi. Chunki oshiqlar yuksak maqom sari intilgan, bu yo'lda o'z nafsini o'rdirgan – yenggan komil insonlardir.

G'azal mulkining sultoni sifatida e'tirof etilgan ulug' shoir Alisher Navoiy g'azaliyotida turfa mavzular qatori ishq va oshiqlik masalasiga alohida urg'u berilgan. Zero, ishq va oshiqlik eng yuksak daraja hisoblanadiki, Ahmad Yassaviy ham bejizga "Harna qilsang, oshiq qilg'il parvardigor", deya hikmatlarida bot-bot kuylaydi. Navoiy ham Yassaviydan ilhomlanib, uning g'oyalarini davom ettirib, ishq va oshiqlik doirasida badiiy jihatdan yuksak she'rlar yaratgan. Yuqoridagi g'azal tahlili orqali shoirning ulug' iste'dod sohibi ekanligiga yana bir karra amin bo'lamiz.

ADABIYOTLAR:

1. *Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. XX жилдлик. I жилд. Бадоеъ ул-бидоя. – Тошкент: Фан, 1987. – 689 б.*
2. *Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. XX жилдлик. V жилд. Бадоеъ ул-васат. – Тошкент: Фан, 1990. – 528 б.*
3. *Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. Тошкент. 1983. – 167 б.*

ЗАЩИТА КУЛЬТУРНЫХ ЦЕННОСТЕЙ ВО ВРЕМЯ ВООРУЖЁННЫХ КОНФЛИКТОВ

Фазылова Азизабону Акбаровна,

студентка 4-го курса Факультета «Международное право»

Университета Мировой экономики и дипломатии, Ташкент

azizabonu.fazilova1509@gmail.com

Аннотация. В данной статье анализируются международно-правовые средства защиты культурных ценностей во время вооружённых конфликтов. Автор акцентирует внимание на необходимости проведения совместной работы государств по охране культурных ценностей во время вооружённых конфликтов. Особое внимание в статье уделено способам защиты культурных ценностей в международном праве.

Ключевые слова: культурные ценности, культурное наследие, защита культурных ценностей, вооружённый конфликт, международно-правовая защита, Пакт Рериха, Гаагская конвенция, ЮНЕСКО, МККК, международная защита.

PROTECTION OF CULTURAL PROPERTY DURING ARMED CONFLICTS

Abstract. This article analyses the international legal means of protecting cultural property during armed conflicts. The author emphasises the need for states to work together to protect cultural property during armed conflicts. Special attention in the article is paid to the ways of protection of cultural property in international law.

Keywords: cultural values, cultural heritage, protection of cultural values, armed conflict, international legal protection, the Roerich Pact, The Hague Convention, UNESCO, the ICRC.

QUROLLI MOJAROLAR DAVRIDA MADANIY QADRIYATLARNI HIMOYA QILISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada qurolli mojarolar paytida madaniy boyliklarni himoya qilishning xalqaro huquqiy vositalari tahlil qilinadi. Muallif asosiy e'tiborni qurolli to'qnashuvlar vaqtida davlatlarning madaniy boyliklarni himoya qilishda hamkorlikda harakat qilinishi zarurligiga qaratadi. Xalqaro huquqda madaniy boyliklarni himoya qilish usullariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: madaniy boyliklar, madaniy meros, madaniy boyliklarni muhofaza qilish, qurolli to'qnashuv, xalqaro huquqiy himoya, Rerich pakti, Gaaga konvensiyasi, YUNESKO, XQXK. xalqaro himoya.

Введение. Цивилизационное и культурное наследие является историческим источником, обращаясь к которому можно реконструировать образ жизни человека прошлых эпох, модели политической, социальной и экономической жизни, достижения материальной и духовной культуры. Культурное наследие придаёт цивилизациям неповторимый облик и отличает их друг от друга. Его сохранность зависит от времени, воздействия природы и человека, и это может стать серьёзной проблемой. В настоящее время происходит активная борьба между государствами и народами за мировые ресурсы, а также за цивилизационные ценности, к которым относятся и объекты культуры.

Прежде всего, в ходе вооружённых конфликтов участились случаи уничтожения памятников, являющихся общемировым достоянием человечества. Уничтожение сопровождается непрерывными вопиющими нарушениями действующих международных-правовых норм, направленных на охрану культурного наследия человечества.

В качестве примера приведём данные международного научного института UNOSAT, согласно которым в Сирийской Арабской Республике только за 2014 год было безвозвратно уничтожено 24 объекта культурного наследия, 290 памятников повреждены; в 2015 году уже 750 памятников культуры на территории этой страны были разрушены [1]. Как гласит преамбула Устава ООН по вопросам образования, науки и культуры (ЮНЕСКО) «Мысли о войне возникают в умах людей, поэтому в сознании людей следует укоренять идею защиты мира».

Основная часть. Считается, что сознательное разрушение объектов культурного наследия обусловлено непринятием чужих взглядов, идей и мнений. Как пишет Ф. Бюньон, директор Управления международного права и сотрудничества в рамках движения Международного комитета